



Traditions of fabric and metal processing in the handicrafts of the valley

Akhrorjon USMANOV¹

Fergana State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2025
Received in revised form
15 May 2025
Accepted 15 June 2025
Available online
25 June 2025

Keywords:

pottery,
carpentry,
blacksmithing,
coppersmithing,
construction,
sewing,
weaving,
jewelry,
embroidery,
goldsmithing,
painting,
"atlas",
"jibaarqoq",
silk (kanaus).

ABSTRACT

This article covers the intangible cultural heritage of the Fergana Valley, types of folk crafts and the knowledge, skills and qualifications associated with them, as well as information about crafts. The history of the development of crafts in the valley and their widespread spread among the people is covered extensively and in detail.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss3-pp135-143>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Vodiy hunarmandchiligida mato hamda metallga ishlov berish an'analari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

kulolchilik,
duradgorlik,
temirchilik,
misgarlik,
binokorlik,
tikuvchilik,
to'quvchilik,
zargarlik,

Ushbu maqola Farg'ona vodiysi nomoddiy madaniy madaniy merosi, xalq hunarmandchiligi turlari va u bilan bog'liq bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni, shuningdek hunarmandchilik haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Hunarmandchilikning vodiya ravnaq topish tarixi, xalq orasida keng yoyilishi haqidagi ma'lumotlar keng va atroflicha yoritilgan.

¹ Teacher, Fergana State University.
E-mail: a.usmonov1995@gmail.com

degrezlik, zardo'zlik,
bo'yoqchilik,
"atlas",
"jibaarqoq",
shoyi (kanaus).

Традиции обработки ткани и металла в ремеслах долины

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

гончарное дело,
плотницкое дело,
кузнечное дело,
медное дело,
строительство,
шитье, ткачество,
ювелирное дело,
вышивка,
золотое дело,
живопись,
«атлас»,
«джибааркок»,
шелк (канаус).

В статье рассматриваются нематериальное культурное наследие Ферганской долины, виды народных ремесел и связанные с ними знания, умения и квалификации, а также информация о ремеслах. Широко и всесторонне освещается история развития ремесел в долине и их повсеместное распространение среди народа.

КИРИШ

Jahondagi turli ilmiy markazlarda hunarmandchilikning madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatiga doir tadqiqotlar, xalqaro loyihalar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, hunarmandchilik bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar, urf-odat va marosimlar, ustoz-shogird an'analari – bularning barchasi nomoddiy madaniy merosi bo'lib, u yoki bu mintaqaning tarixiy, milliy va madaniy xilma-xillik xususiyatlarini ko'rsatib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda milliy hunarmandchilik sohasini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. "Milliy hunarmandchilikning ko'p asrlik an'analari qayta tiklash hamda uni qo'llab-quvvatlash, dunyo hamjamiyati o'rtasida targ'ib qilishni kuchaytirish" vazifalari dolzarb masala sifatida kun tartibidan o'rin oldi. Hunarmandchilik nafaqat madaniy meros, balki nomoddiy madaniy meros sifatida rang-barang elementlarga boydir. Nomoddiy madaniy meros obyektlarini o'rganishda etnologlarning tarixchilar, arxeologlar, san'atshunoslar, iqtisodchilar, turizm sohasi vakillaridan o'ziga xos jihatlari shundaki, ular dala-etnografik tadqiqotlar, og'zaki tarix asosida o'rganish ishlarini olib borib, urf-odatlar, marosimlarning asl mohiyatini tiklashda tarixiy-etnografik materiallarga e'tibor qaratadilar. Bu esa nomoddiy madaniy meros obyektlarini asl mazmun mohiyatiga ko'ra tiklash, rivojlantirish va muhofaza etishda mavzuni etnologik aspektida o'rganish samaradorligini namoyon qiladi.

Hunarmandchilik an'analari tiklash, uni milliy qadriyat, turizm atributi sifatida yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumatning qator qarorlari e'lon qilindi[1]. Natijada hunarmandchilik va uning unutilgan ba'zi turlariga e'tibor qaratilishi va u bilan bog'liq bilimlarning, marosim va urf-odatlarning ham tiklanishiga olib keldi.

O'zbekiston madaniy merosi tizimida Farg'ona vodiysi hunarmandchilik an'analari va u bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar alohida ahamiyatga molikdir.

Hunarmandchilik turli ijtimoiy-tarixiy davrlar doirasida takomillasha bordi va turli ixtisosliklar (kulolchilik, duradgorlik, temirchilik, misgarlik, binokorlik, toshtaroshlik, o'ymakorlik, kashtado'zlik, ko'nchilik, tikuvchilik, to'quvchilik, zargarlik, degrezlik, zardo'zlik, bo'yoqchilik, qayiqsozlik, tunukaso'zlik va boshqalar)ga ajraldi. Hunarmandchilik qanday tabiiy resurslarning mavjudligiga qarab, masalan, paxta va pilla bor yerda to'qimachilik, sifatli xom ashyo bor yerda (masalan, Rishtonda) kulolchilik, jun va teri ko'p yerda to'qimachilik va ko'nchilik, shunga qarab kosibchilik va boshqa turlari rivojlangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Farg'ona vodiysi hunarmandchilik ishlab chiqarishi o'ziga xos hududiy ixtisoslashuvga asoslangan. Masalan, hunarmandchilik tarixi va an'analari masalalari bo'yicha tadqiqot olib borgan S.T. Davlatovaga ko'ra Marg'ilon, Qo'qon ipak ishlab chiqarish, Beshariq matoga ishlov berish, Namangan teri-charm mahsulotlari ishlab chiqarish, Rishton kulolchilik, Oyim (Jalaquduq), Dardak (Qo'rg'ontepa) qishloqlarida poloslar, Marg'ilonda abr matolari, Chust esa pichoq ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Buni quyidagi statistik ma'lumotlarda ham ko'rish mumkin. 1896 yilda Marg'ilon, Namangan, Qo'qon uyezdlarida 600 ga yaqin ipak to'quv do'konlari mavjud bo'lib, ularda 3165 ta usta faoliyat ko'rsatgan, 1910 yili Farg'ona viloyatida 1387 ta ipak do'koni bo'lib, unda 3065 ishchi xizmat qilgan [2] Demak bu hududlar ipakchilik, to'qimachilik, atlas va adras ishlab chiqarish va umuman Turkiston o'lkasining o'ziga xos tekstil markazi bo'lgan. Nomoddiy madaniy meros elementlari ham aynan ixtisoslashgan kasb-korlarga ko'ra rivojlangan.

Hunarmandchilik bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar, urf-odat va marosimlarni nomoddiy madaniy meros sifatidagi xususiyatlarini ko'rsatib berishda quyidagi tasnifiy belgilardan foydalalanildi;

1. Tola va matolar bilan ishlash; 2. Metallga ishlov berish; 3. Yog'ochga ishlov berish; 4. Loy bilan ishlash.

Ushbu maqolamizda tola va matolar bilan ishlash hamda metallga ishlov berish to'g'risida ma'lumotlar beramiz.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tola va matolar bilan ishlash. Farg'ona vodiysida Qo'qon va Marg'ilon o'ziga xos to'qimachilik markazlari bo'lgan. Marg'ilonlik to'quvchilar yaratgan ko'pdan-ko'p mahsulot turlariga nafaqat ushbu shahar, balki qo'shni qishloqlar, boshqa shaharlar, mamlakatlar, dasht ahli orasida talab katta edi. Ular yaratgan mahsulotlar orasida ip gazlamalar alohida o'rin tutgan. Bu gazlamalar ichida aholining turli ijtimoiy qatlamlari orasida karbas (bo'z)ga ehtiyoj katta bo'lgan.

Farg'ona vodiysida to'qimachilik qadimgi davrlardan rivojlangan bo'lib, paxta, ipak tolalari, jun asosiy xomashyo hisoblangan[3]. Yarim natural xarakterdagi har bir dehqon xo'jaligida paxta xom-ashyosi yetishtirilib, paxtadan chigitni ajratish, ip yigirish, libos tikish, ularni kashtalash ayollarning[4], mato to'qish erkaklarning mashg'uloti hisoblangan.

XVI asr muarrixi Fazlulloh ibn Ro'zbexonning ta'biri bilan aytganda dasht ahliga "kiyim va kafan", "ko'ylak va kiyim zarur bo'lib, ularning asosiy qismini karbas tashkil qilib", bu mahsulotlar O'rta Osiyo shaharlaridan yetkazilar edi. Ip gazlamalar ichida chit alohida o'rin tutgan. Bu gazlamani ishlab chiqarish bilan shug'ullangan hunarmandlar chitgarlar deb atalgan. Ular bir xil rangdagi bo'z (karbas)ga turli ranglardagi gullarni bosganlar. Qoliplar yordamida bo'zga gul bosish ancha murakkab ish jarayoni bo'lib, u

hunarmanddan katta mahorat talab etgan[5].

“Bunday shaharlardan biri Marg’ilon bo’lib, XIX asr boshlarida F. Nazarovning ko’rsatishicha, unda to’qimachilik keng rivojlangan edi. “Shaharda turli fabrikalar joylashgan bo’lib, ularda fors parchalari, baxmallar va turli Osiyo gazlamalarini tayyorlaydilar”, - deb qayd etadi F. Nazarov[6].

Marg’ilonlik to’quvchi-hunarmandlar, ipak gazlamalardan yana biri shoyi - kanausni ham ishlab chiqarganlar. Marg’ilonda bu gazlama “atlas” yoki “jibaarqoq” nomlari ostida mashhur edi[7]. “Bu gazlamalar shoyi (kanaus), adras va beqasamdir. Oxirgi ikkitasi yarim ipakdir, - deb yozadi A.Xoroshxin[8].

To’quvchi-hunarmandlar, shuningdek, sallalar va belbog’lar uchun ishlatiladigan mayda ko’k to’rtburchak shakli tushirilgan ip gazlama – futa, sallalar sifatida foydalanilgan oq rangdagi “xosa” deb atalgan gazmol turi va doka ham to’qiganlar. Doka ham xosaga o’xshagan yupqa mato bo’lib, XIX asr muallifi: “Xosa bilan dokaning farqi gazlamaning enida edi; doka xosaga qaraganda yumshoqroq edi”, - deb qayd etadi[9].

Qo’qon xonligi shaharlarida, xususan, Marg’ilonda kiyim-bosh ishlab chiqarishga ixtisoslashgan hunarmandchilik sohalari ham keng rivojlangan edi. Ko’pdan-ko’p hunarmandlar shahar, qo’shni qishloqlar, boshqa shaharlar, dasht ahli va ba’zi hollarda ayrim mamlakatlar aholisi ehtiyojlarini qondiradigan mahsulotlar yaratganlar. Bunday hunarmandlar jumlasiga bosh kiyim, xususan, do’ppi tikuvchilar, oyoq kiyim tikuvchi - kafshdo’zlar, etikdo’zlar va boshqalarni kiritish mumkin. Tikuvchi-hunarmandlar tomonidan katta hajmlarda ishlab chiqarilgan kiyim-bosh turlari jumlasiga turli matolardan tikilgan to’nlar, ro’mollar, qiyiqlar, dastro’mollarni kiritish mumkin. Turli matolar - ip va ipakdan tayyorlangan bu kiyim-boshga har xil ishlov berilgan. Ayniqsa ro’mollar, qiyiqlar, dastro’mollar va do’ppilarga kashtalar bilan bezak berishga katta e’tibor qaratganlar. Bu ish bilan ko’proq ayollar mashg’ul bo’lar edilar[10].

Farg’ona vodiysida hunarmandchilik xususiyatlarini tadqiqotchi Z. Esonov yirik qishloqlarda tovar shaklida va aksariyat maxsuloti ichki ehtiyoj uchun ishlab chiqarilgan uy-hunarmandchiligi ko’rinishida tasniflagan[11]. Namangan, Andijon, Qo’qon, Marg’ilon kabi shaharlar va qishloqlarda shu darajada ko’p bo’z ishlab chiqarilganki, uni bo’yashda vodiylilik hunarmandlar Toshkent chitgarlariga ham gul solish uchun yuborilgan.

Dehqon xo’jaliklarida to’qimachilik mahsulotlariga oddiy dastgohlarda ishlov berilgan. Paxta tolasi chigitdan chig’irida tozalangan. Vodiydagi tog’li tojiklar paxtani chig’iridagi o’tkazishdan avval jun tolasi kabi savag’ich bilan titib olgan. Pitalangan paxta tolasi charxda ip qilib yigirilgan. Vodiya charx turlicha shaklda[12] ya’ni tog’ oldi qishloqlarida chamberagi 8 ta, vodiya janubidagi Kaptarxona qishlog’ida 2 ta yoki 4 ta, Beshariqda esa 6 ta taxtachali qilib yasalgan.

Yigirilgan ipni tayyorlashning keyingi bosqichi uni bo’yash bo’lgan. XX asr boshlarida Farg’ona vodiysining Chodak, Uyg’ur qishloqlarida o’zbek, tojiklar ipni ko’k, zangori, qora, uyg’urlar jigarrang, ko’k, kulrangga bo’yagan. Bo’yalgan kalava iplar Sang, Chodak, Chortoq, G’urumsaroy, Yangiqo’rg’on va Bekobod qishloqlaridagi to’quv dastgohi - “do’kon”larda to’qilgan.

Qishloq hunarmandlari do’konda bo’z, olacha, qalami, karbas, so’si, xosa alak kabi matolarni to’qigan. Vodiya Beshariq, Chortoq, Sang qishloqlarida mato to’qishga ixtisoslashgan to’qimachilik mahallalari vujudga kelgan “Do’konda” vodiyni to’qimachilari uy sharoitida atlas, daroi, shoxi kabi gazlamalarni mahorat bilan to’qigan.

Farg’ona vodiysida ipak gazlama tayyorlovchi markazlar xom-ashyo tayyorlash,

to'qish, dastgohlarning tuzilishi, gazlama turlari, rangi va bezagiga ko'ra ixtisoslashgan. Masalan, Marg'ilon uyezdidagi qishloqlar ipak ya'ni, atlas, shoyi, qalg'ay, beqasam, abr matolari bilan tanilgan.

Qishloq ipakchiligidagi hududiy xususiyatlar gazlamaning lokal xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Masalan, vodiyning Marg'ilon va Namangan uyezdi o'zbeklari yarim ipak beqasamni yashil-ko'k yo'lli moshrang yoki keng yashil va binafsharang yo'lli naqshda, Chortoq qishlog'i keng yo'lli beqasami, Chodak beqasam va poshshoyi matolari bilan ajralib turgan. Ipak matolarning eng qimmatlisi atlas, Kosonsoy va Chortoqda shoxi, xonatlas to'qish rivoj topgan.

Metallga ishlov berish qadimdan Markaziy Osiyo, xususan, Farg'ona vodiysida rivojlanib kelgan bo'lib, buni arxeologik topilmalar va o'rta asr manbalaridagi ma'lumotlar tasdiqlaydi[13]. Farg'ona vodiysida qadimdan Tentaksoy, Kampirravot, Supatepa va Tuyamo'yin ruda konlari ma'lum bo'lib, XX asrdan boshlab ushbu konlarda ishlab chiqarish sanoat usulida yo'lga qo'yilgan.

Vodiylik metallsozlar uchun xomashyo Chotqol, Qurama tizmalaridagi Yorkent, Chimyon, G'ovasoy o'zani konlaridan keltirilgan. G'urumsaroy, Asht, Qo'shtegirmon, Shahrixon Kosonsoy, Chodak va Qorasuv qishloqlarida joylashgan qator temirchilik ustaxonalarida metallga ishlov berilgan[14].

XX asr boshlarida Farg'ona vodiysida metallga ishlov berish bo'yicha 19 ta yo'nalish mavjud bo'lib, uy-ro'zg'or, qishloq xo'jaligi, qurilish uchun kerakli bo'lgan buyumlar ishlab chiqarilgan va ularga talab katta bo'lgan. Bundan tashqari duradgor, kulol, muqovasoz, aravakash, soatsoz, tegirmonchi va boshqa kasb egalari uchun mehnat qurollarini yasashda chilangarlar, rixtagarlar (Farg'ona vodiysi) va degrezlarning xizmati katta bo'lgan. Farg'onaliklarning metallni o'yib ishlash usuli boshqa hududlardagidan farqli ravishda yuza va aniq naqshlari bilan ajralib turgan. Marg'ilonlik ustalar yasagan o'rdak shaklidagi oftoba boshqa viloyatlarda uchramaydi[15]

Farg'ona vodiysi ustalari tomonidan birinchi bo'lib metall buyumlarga arxitektura yodgorliklarini tasvirlash usuli qo'llanilgan. XIX asr oxirlarida ustalar saroy ko'rinishi, odamlar, afsonaviy jonzoqlar ko'rinishlarini tasvirlay boshlaganlar. Marg'ilonning eng sevimli bezagi bodom shakli bo'lib, uni "qalampir" bezagi deb ataganlar. Ustalar buyumning ikki tomoniga "qalampir" naqshini, bir qismiga esa xitoy xalq san'ati usullarini eslatuvchi ajdarho tasviriga taqlid qilib bezak berganlar. Vodiylik kandakorlar odatda mis kosa, choydosh, choynak, oftoba, obdasta, samovar, barkash, sandiqcha, tovoq, lagan, savri, satil, dastsho'y, tufdon kabi buyumlarni tayyorlaganlar.

Farg'ona vodiysining deyarli barcha shaharlari o'zining zargarlik buyumlari bilan dong taratgan. Bu yerda tilla bargak, bilakuzuk, uzuk, ziraklardan qashqar baldoq, baldoq, burunga taqiladigan buloqi urf bo'lgan. Ayollar uchun ko'krak bezaklaridan – zebigardon, bo'yin tumor, qo'ltiq tumor; bo'yinga taqish uchun – marjon, nozik; boshga – bodo-moy, taxiyado'zi; belga – kalitboi, kamarband; sochga esa – tuf, chochpopuk kabi bezaklar yasalgan.

Zargarlik buyumlarini yasashda ustalar feruza, marjon, dur, zumrad, sadaf, aqiq (serdolik), yoqut kabi qimmatbaho va oddiy toshlardan foydalanganlar. Bezaklarni tayyorlashda quyish, bolg'alab yasash, hallash (oltin, kumush suvi yuritish), bosma, o'yib yasash kabi usullardan foydalanganlar.

Shaharlardan uzoqda joylashgan qishloq temirchilari mahsulotni tovar shaklida emas balki, hamqishloqlar buyurtmasiga ko'ra tayyorlagan. Bunda, buyurtmachi ustani

zarur xom-ashyosi bilan ta'minlagan. Agar temirchi o'z xom-ashyosi hisobiga ishlasa, don bilan haq olgan. Masalan, vodiylar shimolidagi Sang qishlog'i temirchisi kuzda yig'ilgan don hosilidan maxsus ulush, ya'ni "haqala" bilan ta'minlangan.

Temirchilik do'konida usta oila a'zolari, shogirdlari bilan ishlagan. Temirchilik buyumlarini mahorat bilan tayyorlashda vodiylar Asht qishlog'i temirchilari tanilgan. Jumladan, vodiylar g'arbidagi Beshariq bozorida Asht ustalari yasagan temir buyumlar xaridorgir hisoblangan. Mazkur davrda Marg'ilon uyezdi qishloqlarida ham temirchilik rivojlangan bo'lib, 1883 yilda uyezdda 13 ta temirchilik do'koni faoliyat yuritgan[16].

Ayni damda ayrim temirchilik markazlarini ixtisoslashuvi yuz bergan bo'lib, vodiylar shimolidagi Kosonsoy, janubidagi Chimyon, g'arbidagi Qo'shtegirmon, sharqidagi Shahrixon temirchilik markazlari bunga misol bo'la oladi. Masalan, Qo'shtegirmon temirchilari vodiylar mohir ketmon yasovchi hunarmand sifatida tanilgan. Ushbu markazlarning lokal xususiyatlari tayyorlangan mahsulot qiyofasida aks etgan. Bunday lokal jihatlarni shakllanishiga mintaqaga geografik sharoiti, dehqonchilik an'analari ta'sir etgan.

Vodiylik temirchilar o'zlari yasagan buyumlarga turli shakldagi ya'ni, bodomcha, yulduzcha, arab imlosi harflari, bedana iz kabi tamg'alar qo'ygan. Bunday tamg'alarda etnoslarning o'ziga xos turmush tarzi, xususan, uning xo'jalik-madaniy an'analari aks etgan.

Mazkur davrda vodiylar pichoqchilik tarmog'i ham rivoj topgan bo'lib, arxeologik topilmalar tarmoqni vodiylar qadimdan taraqqiy etganligini tasdiqlaydi. Keyinchalik uning negizida vodiylar shaharlari va Shahrixon hamda Qorasuv kabi qishloqlarida ushbu tarmoq takomillashib borgan. Vodiylar ba'zi qishloqlarda esa pichoqning alohida turlarini tayyorlash an'analari ham yuzaga kelgan.

Vodiy pichoqchilik markazlarining mahalliy xususiyatlari uskunalarining o'ziga xos tuzilishi, mahsulot shakli, tayyorlanish uslubi va bezaklarida aks etgan. Qorasuv ustalari pichoq yasashda alohida turdagi chilmixa parma nomli asbobni yaratgan. Vodiylar pichoqning qayqi, to'g'ri, tolbargi, qozoqcha va qashqarcha kabi turlari tarqalgan. Vodiylar pichoqchilik markazlari Markaziy Osiyoda, o'zining yuqori sifatli mahsulotlari bilan ajralib turgan.

Vodiylik pichoqchi ustalar tig'li asboblarni ham boshqa mintaqaga ustalari singari tayyorlagan. Vodiylar pichoqchilik an'analari vodiylar janubidagi qadimiy o'troq, shimoliy-sharqidagi cho'l mintaqasi chorvador etnoslari pichoqchiligi asosida taraqqiy etib borgan. Biroq, ayni vaqtda, mahalliy pichoq sifatini oshirish bilan bog'liq ba'zi etnohududiy jihatlari ham yuzaga kelgan. Masalan, Shahrixon va Qorasuv pichoqchilari an'alarining shakllanishida har bir markaz uchun xos bo'lgan xom-ashyo turi, ko'p asrlik an'alar va boshqa markazlar bilan sodir bo'lgan etnomadaniy aloqalari ta'sir ko'rsatgan.

Vodiy ustalari pichoq yasashda qora-po'lat, qurch, bayza, isfaxon va javdari kabi sifatli po'lat navlaridan foydalanganlar. Vodiylar bir necha xil bichimdagi pichoq tayyorlansada, lekin eng mashhur namunasi bu tig'i qayqi nusxa pichoq hisoblangan. Hattoki, bunday nusxadagi pichoqlar Farg'ona vodiylar har bir markazda o'zgacha uslubda yasalgan.

Vodiylik ustalar pichoq tig'ini tayyorlash paytida po'lat sifatini saqlash uchun o'ziga xos "dilikaptar" yoki "kaptarbo'yin" uslubini qo'llagan. Bunda po'lat oz-ozdan bir necha marta sug'orilgan, so'ngra tig'da kesuvchi qism pichoq dami ochilgan. Mazkur holat

pichoqchilikdagi eng muhim jarayon hisoblangan. Bu borada har bir ustada o'ziga xos usul mavjud bo'lib, ushbu jarayon orqali usta pichoqning sifatli bo'lishini ta'minlagan. Masalan, Shahrixon ustalari pichoqni bir marta, Qorasuv ustalari esa bir necha marta sug'orib, zarur natijaga erishgan. Shundan keyin egov yordamida tig'da soy-koma ochilgan. Shahrixonda koma tig'ni bir yonida, Qorasuvda esa ikki yonida ochilgan bo'lib, koma qosh vazifasini bajarib, pichoqning egiluvchanligini oshirgan.

Mazkur davrda vodiyning shaharlari bilan bir qatorda yirik qishloqlarida degrezlik hunari ham rivojlangan. Ular omoch tishi, cho'yan qozon va chiroq kabi mahsulotlarni oddiy ustaxonalarda quyganlar. 1883 yilda Chust uyezdidagi qishloqlarda Mir Hoji Sharipov, Holiq Muhammad Boboyev va Mir Bobo Sharipovga tegishli uchta cho'yan quyish ustaxonasi ishlagan.

Farg'ona vodiysi qishloqlarida misgarlik ham rivojlangan. Chust va Qayroqqum yodgorliklaridagi tadqiqotlar soha qadimiy G'ovasoy, Novkat va Qora Mozor konlari asosida yuzaga kelganligini tasdiqlaydi. Qishloq misgarlari choydosh, choynak, lagan, tovoq, ko'za, xumcha, nosdon, chilim, siyohdon, karnay, nay, ba'zan ot abzali kabi buyumlarni yasagan. Misgarlik vodiyning shimolidagi Kosonsoy, Chodak, Sang, Shahand, sharqidagi Qorasuv, g'arbidagi Bekobod qishloqlarida rivoj topgan bo'lib, bunga turli omillar ta'sir etgan.

Vodiy g'arbidagi Beshariq, shimolidagi Chodak va Sang, sharqidagi Shahrixon va Asaka qishloq hunarmandlari shunday bezaklarni tayyorlagan. Ular kichik sandon, kichik ko'ra, dahandam, rejja-qolip, kirya, gilbo'ta, juptak, mangqol kabi asboblardan foydalangan. Qo'qon va Namangan uyezdlarining qishloq aholisi orasida feruza o'rniga rangli tosh qo'yilgan kumush uzuk va ingichka kumush simdan tayyorlangan sirg'alar urfda bo'lgan[18].

XIX – XX asr boshlarida Toshkent, Qo'qon, Farg'ona, Andijon, Samarqand, Buxoro va Xiva ko'nychilik markazlari hisoblangan. Hozir ham Toshkent, Farg'ona, Qo'qonda ko'nychilik buyumlaridan poyabzal, bosh kiyim, po'stin, egar-jabduq va ot-abzallarini, suv tashish uchun mesh, turli to'rva, xalta, sandiqlar va boshqa uy-an-jomlar, tuzdonlar, kitob uchun muqovalar ishlab chiqaradilar.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Farg'ona vodiysi aholisining hunarmandchilik bilan bog'liq bilim va ko'nikmalari hamda urf-odat va marosimlari tizimini o'rganish asosida bugungi kunga qadar madaniyatning nomoddiy ko'rinishi sifatida u yoki bu darajada saqlanib kelayotgan an'analarni tiklash, rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yurtimizda hunarmandchilikning rivojlanishi O'zbekiston madaniyatini butun dunyoga tanitdi. Respublika Prezidentining sohaga oid Farmoni bilan mustahkamlangan xalq badiiy hunarmandchiligini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi xalq san'ati oldida keng istiqbolni ochib berdi. Xalq ustalari nomi ulug'landi.

Qolaversa, "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" PQ-405-sonli qarorda nomoddiy madaniy meros namunalarini **"tayyorlash – o'rgatish – tiklash – saqlash – ommalashtirish"** yaxlit uzliksiz tizim asosida rivojlantirishni Farg'ona viloyati hokimligi Madaniyat vazirligi va "Hunarmand" uyushmasi bilan birgalikda Rishton xalqaro kulolchilik markazi va Marg'ilon shahridagi hunarmandchilik markazida tajriba tariqasida sinab ko'rish haqida bandlar kiritilgan..

Barcha hunarmandchilik maktablarini yanada rivojlantirish, ularni yo'qolib ketishi oldini olish, milliy madaniyatimizni saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega ekanligi hisobga olinib, hunarmandchilik maktabi an'analarini "ustoz-shogird" orqali davom ettirishni yo'lga qo'yish dolzarb masalalardan biriga aylandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. 2017 йил 17 ноябрдаги Ўзбекистон Президентининг ПФ 5242-сон "Хунармандчиликни янада ривожлантириш ва хунармандларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида", 2018 йил 1 ноябрдаги ПҚ-3991-сон "2019 йил 10-15 сентябрь кунлари Қўқон шаҳрида Халқаро хунармандчилик фестивалини ўтказиш тўғрисида", 2019 йил 28 ноябрдаги ПҚ-4539-сон "Хунармандчиликни янада ривожлантириш ва хунармандларни қўллаб-қувватлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги фармон ва қарорлар
2. Пажитнов К. А. Очерки истории текстильной промышленности дореволюционной России. – М., – 1958. – С. 28.
3. Спришевский В. Археологические раскопки в районе Чуста // Правда Востока. – 1959. – №268. 21 ноябрь.; Заднепровский Ю. А. Древнеземледельческая культура Ферганы. – М.: АН СССР, 1962. – С. 83.
4. Наливкин В. П., Наливкина М. В. Очерк быта ... – С.107.
5. Мукминова Р.Г. Очерки по истории ремесла Самарканда и Бухары в XVI в. - Ташкент. 1976. - С. 66-67.
6. Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. М., 1968. 1968. - С. 49
7. Гребенкин А. Ремесленная деятельность таджиков Зарафшанского округа // Материалы для статистики Туркестанского края. Вып. 1. СПб., 1872. - С. 514
8. Хорошхин А. Очерки Кокана // Сб. ст., касающихся Турк. края А.П. Хорошхина. СПб., 1876.- С. 43
9. Гребенкин А.Д. Ремесленная деятельность таджиков... - С. 513.
10. Агзамова Г.А. Марғилон хунармандчилиги тарихига оид айрим маълумотлар// Марғилон шахрининг жаҳон цивилизацияси тарихидаги ўрни//Марғилон шахрининг 2000 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий конференция материаллари. Тошкент-Марғилон. ЎЗРФА "Фан" нашриёти. 2007. - Б.116.
11. Эсонов З. XIX аср охири – XX аср бошларда Фарғона водийси қишлоқ аҳолисининг хунармандчилиги. Тошкент, 2024. - Б.51.
12. Сухарева О. А. Пезднефеодальный город Бухара... – С. 69; Русайкина С. П. Народы одежды таджиков Гармской области Таджикской ССР // СЭС. Ч. II. – Москва, 1959. – С. 143; Таджики Дарваза и Каратегина. – М., 1966. – С. 215.
13. Массон М. Е. К истории добычи меди в Средней Азии. – М–Л, 1936; Ўша муаллиф: К истории черной металлургии Узбекистана. – Ташкент: 1947. - С. 26.; Заднепровский Ю. А. Древнеземледельческая культура Ферганы... - С. 81.; Папахристу О. А. Черная металлургия Северной Ферганы (По материалам археологического исследования городища Ахсикент IX – начало XIII вв) : Канд. дисс. – М., 1985. - С. 34.
14. Гамбург Б. С. К характеристике орудий земледельцев Ферганский долины и... – С. 112

15. Исмоилова Ж.Х. XIX – XX асрларда Марғилонда хунармандчилик//// Марғилон шаҳрининг жаҳон цивилизацияси тарихидаги ўрни//Марғилон шаҳрининг 2000 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий конференция материаллари. Тошкент-Марғилон. ЎзРФА “Фан” нашриёти. 2007. - Б.116.
16. Губаева С. С. Население Ферганской долины. – Ташкент: Фан, 1991. – С. 20
17. Пардаева И. Х. Ўзбек тилининг заргарлик терминологияси. Филол. фан. номз..дисс. – Тошкент, 1994. – Б. 49–52.
18. Абдуллаев У. С. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар. – Т.: «Янги аср авлоди». 2005. – Б. 232.